




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022- YIL YANVAR-OKTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 61-222-75-87


www.qrstat.uz

2022-yil yanvar-oktabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 12401,5 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 85,1 % ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida Qoraqalpoq'iston Respublikasi korxonalarini tomonidan 14305,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,8 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili shlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 1,4 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 15,6 % ga oshganidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash utilizatsiya qilishda – 0,6 % ga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 4,4 % ga, pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.



2022-yil yanvar-oktabr oylarida
O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|-------------------------|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Ohah tosh, ming t. | 129,4 | 191,7 | 62,3 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1653,0 | 1125,4 | -527,6 |

Gaz kondensati



| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|-------------------------|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Gaz kondensati, ming t. | 74,3 | 67,3 | - 7,0 |


2022- yil yanvar- oktabr oylarida



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12401,5 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,1 % ini tashkil etdi.



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 1,2 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 61,6 % (63,6 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 4,8 % (4,5 %) va quyi texnologiyalisi – 33,4 % (30,7 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 62,1 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 16,4 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 127,5 %) tashkil etdi.

...


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




Paxta chigit




Sement




**O'simlik yog'i
(tozalangan)**



Kalava ip



**Yumshoq bug'doy
va spelta uni**




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 28,2 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 20,2 % ga), 241,4 ming tonna portlandsement (12,8 %), 39,0 ming tonna paxta chigit (12,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 1,4 ming tonna tozalangan guruch (2,6 %), 12,0 ming tonna kalava ip (11,0 %), 92,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (9,0 %), 2922,9 ming litr aroq (10,9 %) va 2,6 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (50,1 %) ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|--------------------------------------|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Aroq, ming litr 100 % li spirit | 3281,2 | 2922,9 | -358,3 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), t. | 5172,1 | 2579,3 | - 2592,8 |
| Paxta tolasi, t. | 23462,8 | 28205,0 | 4742,2 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, t. | 101387,8 | 92259,7 | - 9128,1 |
| Polietilen, ming t. | 251,3 | 250,3 | - 1,0 |
| Polipropilen, ming t. | 71,4 | 70,3 | -1,1 |

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,04 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 189,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, metallurgiya sanoatining ulushi 0,01 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 42,5 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 127,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 446,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat, ichimlikllar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,5 % ga va ishlab chiqarish hajmi 2037,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 78,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 23,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,3 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1885,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %, fizik hajm indeksi 141,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 148,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 62,1 % ni, fizik hajm indeksi 101,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7707,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 314,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 182,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 18,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,04 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 279,3 %.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 668,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 12,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1697,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,6 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,6 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 99,8 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|--|----------------------------|----------------------------|--------------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 6628,2 | 7266,7 | 638,5 |
| Shahar xo'jaliging, qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yichfa xizmatlar mln. so'm | 13211,9 | 14996,5 | 1784,6 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 9,6 % va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chinqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 13,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2536,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-oktabr oylari mos davriga nisbatan 110,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (110,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Shumanay (156,1 %), Ellikqal'a (145,4 %), Qorao'zak (140,6 %), Amudaryo (139,2 %), Mo'ynoq (130,3 %), Xo'jayli (124,8 %), Nukus (120,0 %), Chimboy (117,8 %) hamda Beruniy (114,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'rsatkich Nukus shahri (90,1 %), Taxtako'pir (86,8 %), Kegeyli (95,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 65,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 34,6 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 57,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 42,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 113,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,3 % ni, shuningdek, Taxiatoш tumani 12,3 % ni, Ellikqal'a tumani 10,8 % ni, To'rtko'l 8,8 % ni, Amudaryo tumani 7,3 % ni, Beruniy tumani 7,0 % ni, Xo'jayli tumani 6,9 % ni va Chimboy tumani 5,6 % ni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi

2118,8 mld. so'm


2020- yil yanvar-oktabr

2225,3 mld. so'm

2021- yil yanvar-oktabr

2536,3 mld. so'm

2022- yil yanvar-oktabr



ishlab chiqarishi
hajmida iste'mol
mahsulotlarining
ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 20,9 % ni, shuningdek, Nukus shahri 15,4 % ni, To'rtko'l tumani 9,9 % ni, Xo'jayli tumani 9,3 % ni, Amudaryo tumani 6,9 % ni hamda Beruniy tumani 6,1 % ni tashkil etdi.



870,4 mldr. so'm

2020- yil yanvar-oktabr



946,0 mldr. so'm

2021- yil yanvar-oktabr

878,5 mldr. so'm



2022- yil yanvar-oktabr

Jami iste'mol
mollari ishlab
chiqarish hajmida
nooziq- ovqat
mahsulotlarining
ulushi




Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi , tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 22,8 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 16,9 % ni, To'rtko'l 8,2 % ni, Amudaryo hamda Beruniy 7,5 % ni, Xo'jayli 5,7 % ni, Chimboy 5,5 % ni tumanlari tashkil etdi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,6 %), Taxiatush (12,4 %), Qo'ng'irot (5,0 %), To'rtko'l (3,9 %), Amudaryo (3,1 %) va Beruniy (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (23408,9 ming so'm) va Taxiatoш tumanida 24008,5 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (7300,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1294,3 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 4126,2 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 2283,1 ming so‘mni, Ellikqal‘a tumanida 1652,0 ming so‘mni, Nukus shahriida 1551,6 ming so‘mni va Xo‘jayli tumanida 1396,8 ming so‘mni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 2788,7mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda respublikada 3508 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1983 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 56,6 %) Nukus shahriga 706 tasi (20,1 %), To'rtko'l 366 tasi (10,4 %), Amudaryo 311 tasi (8,9 %), Beruniy 300 tasi (8,6 %) Ellikqal'a 300 tasi (8,6 %) tumanlariga to'gri kelmoqda

Jami yangi tashkil etilgan

607 dona

2020- yil yanvar-oktabr

669 dona

2021- yil yanvar-oktabr

675 dona

2022- yil yanvar-oktabr



Jami faoliyat yuritayotgan

2752 dona

2020- yil yanvar-oktabr

3301 dona

2021- yil yanvar-oktabr

3508 dona

2022- yil yanvar-oktabr

